

ESG PRINCIPLES - A DRIVER OF SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT AND BUSINESS TRANSFORMATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES



<https://timeedu.uz/>



24.10.2025 y.



“ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami. -T.: TMII, 2025. – 662 bet.

Ushbu to‘plamda mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, raqamli iqtisodiyot sharoitida mavjud sanoat ishlab chiqarishni raqamli transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish orqali ishlab chiqarish sanoatini “drayver” sohaga aylantirish istiqbollari hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot materiallari keltirilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan huquqiy-me’yoriy xujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Сборник научных статей и тезисов Международной научно-практической конференции на тему «Принципы ESG – драйвер устойчивого развития регионов и трансформации бизнеса». – Т.: ТМII, 2025. – 662 с.

В сборнике представлены материалы научных исследований, посвященные устойчивому экономическому развитию нашей страны, диверсификации производства, адаптации к изменению климата и смягчению его последствий, повышению эффективности природопользования, обеспечению устойчивого развития регионов и промышленных предприятий на основе принципов ESG, внедрению эффективных экономических механизмов поддержки «зеленой» экономики в регионах, трансформации деятельности крупного и среднего бизнеса и повышению его конкурентоспособности, управлению отходами и развитию циклической экономики на промышленных предприятиях, охране окружающей среды на основе «зеленых» технологий, искусственному интеллекту, перспективам превращения обрабатывающей промышленности в «драйверную» отрасль за счет ускорения процессов цифровой трансформации действующего промышленного производства в условиях цифровой экономики, а также различным направлениям обеспечения устойчивого экономического роста.

Авторы сами несут ответственность за содержание представленных в сборнике материалов, достоверность содержащихся в нем статистических данных и представленных нормативно-правовых документов, а также за критические высказывания и предложения.

Tahrir hay’ati: i.f.n., dotsent Sh.K. Narbayev

i.f.n., professor I.S. Xotamov

i.f.d., professor Sh.I. Alibekov

i.f.d., professor V.P. Kuznetsov

i.f.f.d., dotsent N. Nosirova

i.f.f.d., dotsent D. Mamasoatov

assis. G. Axmedova

assis. A. Qudratxojayev

Taqrizchilar: i.f.d., professor N.M. Maxmudov

i.f.d., professor A.A. Yadgarov

MUNDARIJA / ОГЛАВЛЕНИЕ

I SHO‘BA. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH, ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH, IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH VA ULARNI YUMSHATISH, TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	11
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI XALQARO STANDARTLAR TIZIMIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	11
Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich	11
N.K.Sharapova	11
АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ К ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ ПРЕДПРИЯТИЕМ И РЕАЛИЗАЦИИ ESG-КОНЦЕПЦИИ	22
Кузнецов Виктор Павлович	22
Назарова Екатерина Николаевна	22
ЭКОНОМИКО-ПРАВОВОЙ КОНТРОЛЬ КАК МЕТОД ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	31
Алибеков Шахизин Ильмутдинович	31
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТАРКИБИНИ БОЗОР КОНЪЮНКТУРАСИ ЎЗГАРИШИГА МОС ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	35
Чариев Курбан Амирович.....	35
Абдулазизов Шухрат Абдулазизович.....	35
BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	45
Asamxodjayeva Shoirra Shukrullayevna.....	45
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI.....	53
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o‘g‘li.....	53
МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ В КОМПАНИЯХ	56
Киясов Бакдәулет Назарбекұлы	56
РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ КРІ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ СОТРУДНИКОВ НА ПРЕДПРИЯТИИ.....	62
Әкбар Айдын.....	62
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH VA HUDUDIY “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	68
Rashidov Jamshid Xamidovich	68
“QURILISH SOHASI FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH”.....	78
Alimov Olimjon Sultanmuratovich	78
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MAKROIQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH TAHLILI	84
Nazirova Shaxzoda Xayrullo qizi.....	84
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПРОИЗВОДСТВА ОДЕЖДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	93
Ахмедова Газиза Азим кызы	93
ОПТИМИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ В НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ НА ПРИМЕРЕ КОМПАНИИ «ГРУППА ГАЗ»	100
Лаврентьева Е.В.....	100
Пахомичева А.С.....	100
БЕРЕЖЛИВОЕ ПРОИЗВОДСТВО КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ.....	107
Лаврентьева Е.В.....	107
Султанова Л.Л.....	107
ТЕНДЕНЦИИ И ПРОБЛЕМЫ РОССИЙСКИХ РЕГИОНОВ ПО ВНЕДРЕНИЮ ESG – СТАНДАРТОВ	114
Набоков Владимир Иннокентьевич	114

ЎЗБЕКИСТОНДА КИРУВЧИ ТУРИЗМНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРАТИ	119
Рискулов Равшанжон Бектўраевич	119
KORXONADA BREND EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI	127
Sa'dulloev Habibullo Ibodullo o'g'li	127
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI VA "RAQAMLI O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR TAHLILI.....	132
Sharipova Shahnoza Baxtiyorovna.....	132
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	138
Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich.....	138
РАЦИОНАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕРРИТОРИИ ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ	146
Ашуров А.Ф.	146
II SHO'BA. "YASHIL" TEXNOLOGIYALAR, SUN'IY INTELEKT VA ENG YAXSHI TEXNOLOGIYALAR (BAT) ASOSIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH	154
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	154
Yuldashev Iskandar Bahromovich.....	154
ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ «УНИВЕРСИТЕТ 4.0»: ПОДГОТОВКА КАДРОВ ДЛЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ НИЗКОУГЛЕРОДНОГО ПЕРЕХОДА	157
Кузнецова Светлана Николаевна	157
Цыбуцинина Ирина Евгеньевна.....	157
Фролов Юрий Сергеевич	157
Горев Никита Алексеевич.....	157
SUN'IY INTELEKT VA REAL VAQT TIZIMLARI ASOSIDA HUDUDIY AVTOMOBIL YO'LLARI MUHANDISLIK INSHOATLARINI LOYIHALASH JARAYONINI MODELLASHTIRISH.....	166
Norinov Muhammadyunus Usibjonovich,.....	166
Zikrayev Akmaljon Alimovich.....	166
REAL VAQT TIZIMLARI VA SUN'IY INTELEKT ASOSIDA EKOLOGIK MONITORINGNI AVTOMATLASHTIRISHNING ILMIY-ASOSIY YO'NALISHLARI.....	175
Ergashev Otabek Mirzapo'latovich	175
ИҚЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ШАРОИТИДА АГРАР СОҲАНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА СУҒУРТА МЕХАНИЗМИНИНГ РОЛИ	184
Вахобов Абдурашид Расулович	184
ИНСОН ВА АТРОФ-МУҲИТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ.....	190
Йўлдошев Нуриддин Курбонович	190
SUN'IY INTELEKTDAN ATROF-MUHITNI MUHOFAZALASHDA FOYDALANISH	198
Nasriddinov Isomiddin Xolmatovich	198
Tulyaganov Erkabay Jumabekovich.....	198
O'ZBEKISTONDA KO'ZI OJIZ SHAXSLARNING IQTISODIY FAOLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK IMKONIYATLAR.....	203
Isayev Kobiljon Abdukodirovich	203
Qurbanov Azizbek G'ulom o'g'li.....	203
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TIZIMI RIVOJLANISHI SHAROITIDA BIZNESNI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH	209
Kambarova Shaxnozaxon Mirvoxitovna	209
BARQAROR INVESTITSİYALAR VA ESG ME'ZONLARI: NAZARIY TAHLIL	217
Maxmasobirova Nigora Uktam qizi	217
"O'ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARIDA ESG TAMOIYILLARIGA ASOSLANGAN BOSHQARUV MEKANIZMLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH".....	222
Rusatamov Zafar Xudaykulovich.....	222
THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN ATTRACTING INSTITUTIONAL INVESTORS IN CORPORATE GOVERNANCE.....	230
Sadikova Muslima Alisher qizi	230

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI	235
Daminova O'g'iloy Mirzaqul qizi	235
КОНФУЦИАНСКИЕ ИДЕИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА	243
Нарзуллаева Гульчехра Салимовна	243
Сайфуллаева Мадина Исмаиловна	243
Носирова Наргиза Джамолиддин кизи	243
YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUVISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	258
Yakubova Umidaxon Abdusattarovna	258
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-INSTITUTIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO'NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI	264
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi	264
INKLYUZIV IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING XORIJIY Tajribalari	271
Qurbanov Azizbek G'ulom o'g'li	271
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI	277
Murtazaev Orif Odilovich	277
SANOAT KORXONALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY Jihatlarini	284
Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi,	284
III SHO'BA. ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA HUDUDLAR VA SANOAT KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	291
“SANOAT-5.0” VA BARQARORLIK: ASOSIY TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR.....	291
Xotamov Ibdullo Sadulloevich	291
Qudratxo'jayev Abduqaxxor Kudratxo'ja o'g'li	291
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	301
Мырзалиева Гульмира Асканбековна	301
Байкенжеева Дамира Бахытжановна	301
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH YO'LLARI	307
Asamxodjayeva Shoira Shukrullayevna	307
Qodirov Sardor Qosimjonovich,.....	307
ESG TAMOIYILLARI HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATDA: BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI PARADIGMASI	314
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	314
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA SANOAT CHIQUINDILARINI QAYTA ISHLASHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRI	319
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	319
AGLOMERATSIYALARINING “YASHIL” IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	327
Shohruh Mardonov	327
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT SAMARADORLIGIGA EKO-MARKETING TA'SIRINI TAHLIL QILISHDA SUN'IY INTELLEKT VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN YANGI EKONOMETRIYA YONDASHUVI.....	332
Usmonova Diyora Mahmud qizi	332
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATNI TUTGAN O'RNI	343
Matchanova Ma'rifat Ikramovna	343
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI.....	349
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	349
AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA IKKINCHI DARAJALI YETKAZIB BERUVCHILARNING O'RNI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	352
Qobilov Rustam Shuxrat o'g'li	352
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В КОМПАНИЯХ	355
Адил Фарида Сабитқызы	355

10. Liu, Y., Chen, H., & Wang, L. (2024). Water-saving irrigation technologies and their impacts on crop yield and water use efficiency. *Water Resources Management*, 38(4), 1245-1268.

11. Martinez, J., Silva, P., & Costa, R. (2024). Regenerative agriculture practices for soil health improvement. *Soil Science Society of America Journal*, 88(3), 678-695.

12. Thompson, R. B., Gallardo, M., & Rodríguez, J. S. (2024). Precision irrigation management in Mediterranean regions. *Irrigation Science*, 42(2), 189-210.

ESG TAMOYILLARI HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATDA: BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI PARADIGMASI

Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Iqtisodiyot va menejment kafedrası v.b.dotsenti,
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori

E-mail: ismoil.zaynutdinov@gmail.com

Zaynutdinov Ismoil Samariddin ogli

Tashkent State University of Oriental Studies,
Acting Associate Professor of the
Department of Economics and Management,
Doctor of Philosophy in Economics

Зайнуудинов Исмоил Самариддин угли

Ташкентский государственный университет востоковедения,
и.о. доцент кафедры Экономики и менеджмента
доктор философии по экономике

Annotatsiya: Maqolada ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining hududiy iqtisodiy siyosatda tutgan o'rni va barqaror rivojlanishning yangi paradigmasi sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Hududlarni rivojlantirishda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlari uyg'unligi ko'rib chiqilgan, xalqaro tajriba va milliy amaliyot taqqoslangan. Shuningdek, O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi va ESG standartlari asosida amalga oshirilayotgan dasturlar istiqbollari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ESG tamoyillari hududiy barqarorlik va biznes transformatsiyasining muhim drayveri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ESG, barqaror rivojlanish, hududiy siyosat, yashil iqtisodiyot, innovatsiya.

Abstract: The article analyzes the role of ESG (Environmental, Social, Governance) principles in regional economic policy and their significance as a new paradigm of sustainable development. The interrelation of environmental, social, and governance criteria in regional development is examined, and international experience is compared with national practice. Special attention is given to the prospects of implementing programs in Uzbekistan based on the concept of the green economy and ESG standards. The findings demonstrate that ESG principles serve as a key driver of regional sustainability and business transformation.

Key words: ESG, sustainable development, regional policy, green economy, innovation.

Аннотация: В статье анализируется роль принципов ESG (Environmental, Social, Governance) в региональной экономической политике и их значение как новой парадигмы устойчивого развития. Рассмотрена взаимосвязь экологических, социальных и управленческих критериев в развитии регионов, сопоставлен международный опыт и национальная практика. Особое внимание уделено перспективам реализации программ в Узбекистане на основе концепции «зелёной экономики» и стандартов ESG. Результаты

исследования показывают, что принципы ESG являются важным драйвером региональной устойчивости и бизнес-трансформации.

Ключевые слова: ESG, устойчивое развитие, региональная политика, зелёная экономика, инновации.

Kirish.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish masalasi global siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Davlatlar, xalqaro tashkilotlar va biznes tuzilmalari o‘z strategiyalarida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlariga asoslangan yangi yondashuvni qo‘llashga o‘tmoqda. Bu jarayonda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari alohida ahamiyat kasb etib, hududiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ESG tamoyillari hududlarning barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda uchta muhim vazifani hal qiladi:

1. Ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslarni muhofaza qilish orqali aholi uchun sog‘lom turmush muhitini shakllantirish.
2. Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirish.
3. Boshqaruv tizimini takomillashtirish, ochiqlik va hisobdorlik orqali investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish.

Shu nuqtai nazardan ESG nafaqat biznes sub’ektlari, balki davlat va mahalliy hokimiyat organlari uchun ham strategik ahamiyatga ega bo‘lib, hududiy iqtisodiy siyosatning yangi paradigmasi sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

ESG tamoyillari va ularning iqtisodiy siyosatga ta’siri masalasi so‘nggi yillarda jahon ilmiy hamjamiyatida keng muhokama qilinmoqda. Xalqaro va milliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ESG faqatgina korporativ boshqaruvda emas, balki hududiy barqaror rivojlanishda ham muhim mezon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro adabiyotlarda ESG asosan investitsiya siyosatining ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Masalan, *Friede, Busch va Bassen (2015)*¹⁴¹ o‘z tadqiqotlarida ESG mezonlari bilan moliyaviy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatib, ushbu tamoyillarning uzoq muddatli rivojlanish uchun ahamiyatini asoslaydilar. Shuningdek, *European Commission (2020)*¹⁴² hujjatlarida “Green Deal” doirasida ESG standartlari hududiy siyosatda majburiy mezon sifatida belgilangani qayd etilgan.

Milliy adabiyotlarda esa ESG tamoyillari ko‘proq “yashil iqtisodiyot”, ijtimoiy mas’uliyat va shaffof boshqaruv bilan uyg‘unlikda o‘rganilmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019)¹⁴³ hamda qayta

¹⁴¹ Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: Aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 5(4), 210–233.

¹⁴² European Commission. (2020). *The European Green Deal*. Brussels: EU Publications.

¹⁴³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. (2019). “Яшил иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”. Тошкент.

tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha davlat dasturlarida ESG elementlariga yaqin yondashuvlar ko'zga tashlanadi. *Karimov (2021)*¹⁴⁴ va *Nurmatov (2023)*¹⁴⁵ tadqiqotlarida ESGning mahalliy korxonalarda joriy etilishi iqtisodiy samaradorlik va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim omil sifatida qayd etilgan.

Ilmiy nazariya nuqtai nazaridan, ESG tamoyillari barqaror rivojlanishning integrativ modeli sifatida baholanadi. Ushbu yondashuvda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik muhofaza uyg'unlikda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotchilar ESGni "uchinchi avlod iqtisodiy siyosat tamoyili" deb atashmoqda, chunki u klassik iqtisodiy o'sish nazariyasidan farqli ravishda, ko'p o'lchovli samaradorlikka asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning nazariy poydevori sifatida BMTning 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari¹⁴⁶, Yevropa Komissiyasining "*Green Deal*" dasturi¹⁴⁷ hamda Global Reporting Initiative (GRI)¹⁴⁸ standartlariga asoslanadi. Shu bilan birga, korporativ ijtimoiy mas'uliyat va ekologik iqtisodiyot nazariyalari ESG tamoyillarini tushuntirishda nazariy manba sifatida foydalanib kelinmoqda.

Deduktiv usul orqali ESG konsepsiyasining umumiy nazariy qoidalari ilmiy adabiyotlar asosida umumlashtirilmoqda, induktiv tahlilda esa xalqaro va milliy tajribalar asosida amaliy xulosalar shakllangan.

Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo davlatlarida ESGning hududiy siyosatda tatbiq etilishi tahlil qilinib, ularning afzal jihatlari va milliy sharoitda qo'llanish imkoniyatlari baholangan. Benchmarking usulidan foydalangan holda, O'zbekistonda ESG mezonlarini joriy etishda xalqaro tajribadan kelib chiqib qiyosiy modellar ishlab chiqildi.

Hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (YaHM o'sishi, investitsiya miqdori, ishsizlik darajasi, ijtimoiy infratuzilma holati) ESG mezonlari bilan uyg'un holda tahlil etildi. Shu orqali iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga e'tibor qaratildi.

ESG tamoyillarini milliy iqtisodiyot va hududiy siyosatga integratsiya qilishning "inersiyali", "modern" va "innovatsion" ssenariylari ishlab chiqildi. Bu ssenariylar orqali ESGning o'rta va uzoq muddatli ta'siri (2030 yilgacha) prognoz qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hududiy iqtisodiyotlarda ekologik mezonlarning ahamiyati ortib bormoqda. Masalan, atmosfera chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hududning iqtisodiy samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir

¹⁴⁴ Каримов, Ш. (2021). Ўзбекистонда ESG тамойилларини жорий этиш имкониятлари. Тошкент давлат иқтисодиёт университети илмий журналлари.

¹⁴⁵ Нурматов, Б. (2023). Худудий иқтисодий сиёсатда экологик барқарорлик ва ESG мезонлари. "Иқтисодиёт ва инновациялар" журнали, №2.

¹⁴⁶ United Nations (2015) – Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development.

¹⁴⁷ European Commission (2020) – The European Green Deal.

¹⁴⁸ GRI (2021) – Sustainability Reporting Standards.

ko'rsatmoqda. Empirik tahlillar ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiya kiritgan hududlarda ishlab chiqarish xarajatlari o'rtacha 12–15% ga pasaygan, eksport salohiyati esa o'sgan¹⁴⁹. Shuningdek, tabiiy resurslarni tejash va “yashil infratuzilma”ga o'tish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki investitsion jozibadorlikni ham oshiradi.

ESGning ijtimoiy yo'nalishi aholi turmush sifati va hududiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar (maktab, shifoxona, transport) mahalliy aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ishsizlik darajasini kamaytiradi. Tahlil natijalariga ko'ra, so'nggi besh yilda ijtimoiy sarmoyalarni ko'paytirgan hududlarda ishsizlik darajasi o'rtacha 2,5–3% ga pasaygan, mehnat unumdorligi esa 8–10% ga oshgan¹⁵⁰¹⁵¹. Bu ESG tamoyillari ijtimoiy samaradorlik orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishini anglatadi.

ESGning boshqaruv komponenti hududiy siyosatda institutsional sifatni belgilaydi. Davlat boshqaruvida hisobdorlik va shaffoflikni kuchaytirish orqali investorlar ishonchi mustahkamlanmoqda. Masalan, mahalliy hokimiyatlarda elektron hukumat tizimining joriy etilishi investitsiya loyihalari ko'rib chiqilish muddatini o'rtacha 25–30% ga qisqartirgan. Shu bilan birga, ESG hisobotlari va reyting tizimlarini joriy qilish orqali hududlarda investitsiya oqimi 15–20% ga oshgan.

Yevropa Ittifoqi tajribasi ESGni huquqiy va institutsional asosga qo'yishning samaradorligini ko'rsatadi. AQShda esa bozor mexanizmlari (ESG indeksleri, fondlar) asosiy drayver hisoblanadi. Osiyo mamlakatlari esa ESGni texnologik yangilanish va ijtimoiy innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirgan. O'zbekistonda ESG hali huquqiy va institutsional asos sifatida to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, “yashil iqtisodiyot” dasturlari, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari va raqamli boshqaruv islohotlari ESGga qadamma-qadam yaqinlashishning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ESG tamoyillari hududiy siyosatda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning uyg'unlashuv nuqtasi hisoblanadi. Uning afzalligi shundaki, iqtisodiy samaradorlik nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarda, balki aholi turmush sifati va ekologik barqarorlikda ham ifodalanadi.

Biroq, amaliyotda qator cheklovlar mavjud: ESG baholash uchun milliy indikatorlar tizimi yo'qligi, korxonalarning ESG hisobotini tayyorlash malakasi yetarli emasligi va moliyaviy resurslar cheklanganligi. Shu sababli, milliy siyosatda ESGni institutsionallashtirish, mahalliy korxonalar uchun ESG standartlari ishlab chiqish va xorijiy investitsiyalarni ESG mezonlari orqali jalb qilish zarur.

¹⁴⁹ World Bank (2020) – World Development Report.

¹⁵⁰ Нурматов (2023) – Худудий сиёсатда ESG мезонлари.

¹⁵¹ Каримов (2021) – Ўзбекистонда ESG жорий этиш имкониятлари.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari hududiy iqtisodiy siyosatda barqaror rivojlanishning strategik asosi ekanini ko'rsatdi. ESG orqali hududlarda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlik bilan uyg'unlashtiriladi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqladiki, ESGni huquqiy, institutsional va iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi sifatida qabul qilish hududiy rivojlanish modellarining uzoq muddatli samaradorligini oshiradi. O'zbekistonda esa ESG tamoyillari hali to'liq institutsionallashtirilmagan bo'lsa-da, "yashil iqtisodiyot" strategiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihalari va raqamli boshqaruv tizimlari orqali amaliy qadamlar tashlanmoqda.

Shu bilan birga, milliy siyosatda ESGni yanada samarali yo'lga qo'yish uchun qator takliflar ilgari surish mumkin.

Birinchidan, hududiy rivojlanish jarayonlarini baholashda yagona ESG indikatorlari va milliy hisobot standartlarini ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishda ESG mezonlarini asosiy talab sifatida joriy etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, yirik va o'rta korxonalar uchun ESG hisobotini tayyorlash majburiy qilinadigan tizim yo'lga qo'yilishi lozim.

Shu bilan birga, ijtimoiy innovatsiyalar dasturlari orqali aholi turmush sifati oshirilishi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari modernizatsiya qilinishi zarur. Ekologik yo'nalishda esa qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash va resurs tejamkor ishlab chiqarish sohalarida davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotdan olingan xulosalar shuni anglatadiki, ESG tamoyillarini institutsional va huquqiy asoslarda kuchaytirish, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, ESG tamoyillari O'zbekistonda hududiy barqaror rivojlanish va biznes transformatsiyasining kuchli drayveriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: Aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 5(4), 210–233.
2. European Commission. (2020). *The European Green Deal*. Brussels: EU Publications.
3. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York: UN.
4. Global Reporting Initiative (GRI). (2021). *Sustainability Reporting Standards*. Amsterdam: GRI.

5. Carroll, A. B., & Brown, J. A. (2018). Corporate social responsibility: A review of current concepts, research, and issues. *Business & Society*, 57(1), 1–31.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. (2019). “Яшил иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”. Тошкент.
7. Каримов, Ш. (2021). Ўзбекистонда ESG тамойилларини жорий этиш имкониятлари. Тошкент давлат иқтисодиёт университети илмий журнали.
8. Нурматов, Б. (2023). Худудий иқтисодий сиёсатда экологик барқарорлик ва ESG мезонлари. “Иқтисодиёт ва инновациялар” журнали, №2.
9. World Bank. (2020). *World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. Washington, DC: World Bank.
10. OECD. (2021). *Regional Development and ESG Integration: Policy Approaches and Best Practices*. Paris: OECD Publishing.

ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SANOAT CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Yusupov Ulug‘bek Mamayusupovich

Angren universiteti “Iqtisodiyot va moliya” kafedra mudiri

E-mail: uyusupov076@gmail.com

Orcid: [0009-0000-1730-8173](https://orcid.org/0009-0000-1730-8173)

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida tashkil etishning barqaror rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi. Dunyo miqyosida ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida chiqindilar miqdori ham keskin oshib bormoqda. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va hududlarning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada sanoat chiqindilarini qayta ishlashda sirkulyar iqtisodiyot yondashuvlari, yashil texnologiyalarni joriy etish, ESG standartlari asosida korxonalar faoliyatini baholash mexanizmlari hamda xalqaro tajribalar o‘rganiladi. Shuningdek, chiqindilarni energiya manbaiga aylantirish va ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlashning iqtisodiy va ijtimoiy samaralari yoritiladi. Tadqiqot natijalari, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ESG tamoyillarining muhim drayver sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ESG tamoyillari, barqaror rivojlanish, sanoat chiqindilari, chiqindilarni qayta ishlash, sirkulyar iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, ekologik xavfsizlik, biznes transformatsiyasi.

Kirish

XXI asrda global miqyosda sanoat ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga kengayib bormoqda. Ushbu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, u keltirib chiqargan salbiy oqibatlar ham tobora keskinlashmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish hajmining ortishi chiqindilar miqdorining keskin ko‘payishiga olib kelmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yilda dunyo bo‘yicha maishiy chiqindilar hajmi 2,1 milliard tonnani tashkil etgan. Agar mavjud tendensiyalar davom etsa, 2050 yilga kelib bu raqam 3,8 milliard tonnagacha oshishi prognoz qilinmoqda. Sanoat chiqindilarining o‘sishi ham tashvishli: faqatgina elektron chiqindilar (e-waste) hajmi 2010 yildagi 34 milliard kilogrammdan 2022 yilda 62 milliard kilogrammgacha yetdi va 2030 yilga